SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

***(2023-yilning yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma’lumot)***

# Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma’lumotlaga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6 738,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,6 % ni tashkil etdi.












**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (5 264,6 ming so‘m) hamda Jomboy tumanida (4 140,1 ming so‘m) nisbatan yuqoriligini ko‘rsatmoqda.











# Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari
## (2023-yil yanvar-mart oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib 6 738,6 mlrd. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 103,6 % ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so‘m




2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (44,9 %), Jomboy tumani (11,4 %), Samarqand tumani (6,9 %),hamda Utgut (6,1 %) tumanlari hissasiga tog‘ri keldi. Shuningdek, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung‘ur tumanida (114,8 %), Oqdaryo tumanida (114,3 %) hamda Qushrabot tumanida (111,7 %) kuzatildi.

FHI, %




Ulushi, %



# Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

## 2023-yil yanvar-mart oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 5,1 % ga hamda Ishlab chiqarish 6,3 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 48,8 % ga hamda Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 63,3 % ga pasayish kuzatildi.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 56,7 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini tashkil etdi.



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘zgarish sur’ati**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023-yilning yanvar-mart oylarida 0,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali 15,8 % (13,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali 17,2 % (17,3 %) va quyi texnologiyalisi 62,2 % (66,0 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,1 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,7 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 137,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 24,6 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 39,7 % (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,8 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-mart | 2023-yil yanvar-mart | Farqi, +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 42,3 | 23,9 | - 18,4 |
| Paxta tolasi, ming t. | 18,2 | 22,4 | 4,2 |
| Tozalangan paxta yog‘i tonna. | 2 174,0 | 4 025,0 | 1 851,0 |
| Konyak spirti – ming litr 100 % spirt | 115,0 | 134,3 | - 19,3 |
| Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka), tonna | 160,3 | 185,5 | 25,2 |
| Uzum vinosi - ming litr | 6,0 | 5,0 | -1,0 |
| Aroq – ming litr 100 % spirt | 25,8 | 11,4 | - 14,4 |

*2023-yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni og‘irligi 600 g (buxanka), 329,0 tonna (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 15,7 % ga ko‘paygan), 23,9 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (42,5 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.*

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

*(2023-yil yanvar-mart oylarida)*

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 557 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o‘sish sur'ati o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 42,6 % ga kamaygan.







| | | |
|---|---|---|
| 2023- yil | 557 dona | 57,4 % |
| 2022- yil | 870 dona | 97,4 % |
| 2021- yil | 891 dona | 87,9 % |

## Avtobuslar ishlab chiqarish

*(2023-yil yanvar-mart oylarida)*

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-mart oylarida 200 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatgich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 55,0 % ga ko‘paygan.





| | | |
|---|---|---|
| 2023- yil | 200 dona | 155,0 % |
| 2022- yil | 129 dona | 87,8 % |
| 2021- yil | 147 dona | 47,1 % |

## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 8,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 203,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,7 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa 137,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 719,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 94,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,1 % gacha ko‘tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 100,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 207,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 27,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 114,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 30,6 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 101,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 059,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati



2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 119,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 73,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 56,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 19,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,9 % ni, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 410,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-mart oylarida Kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 129,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa,

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, Kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 69,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 188,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.





## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 87,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 46,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 34,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 184,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 %, fizik hajm indeksi 65,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 41,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,3 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 86,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 80,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 75,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 122,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 165,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 251,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 66,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 135,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 13,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 118,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,4 %, fizik hajm indeksi 89,3 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 698,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,7 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-mart | 2023-yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 83 948,5 | 9 528,8 | - 74 419,7 |
| Issiqlik energiyasi, ming, gkal | 3 534 165,0 | 2 429 397,4 | - 1 104 767,6 |

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % **



Elektroenergiya

Issiqlik energiyasi








# Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 46,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-mart | 2023-yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m* | 10 163,3 | 10 848,3 | 685,0 |
| Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m* | 19 856,2 | 23 289,5 | 3 433,3 |
| Plastmassa chiqindilari, *tonna* | 90,0 | 597,6 | 507,6 |

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % **



Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar




Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mlrd.so‘m





## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib 31,2 % shuningdek, Samarqand 10,7 %, Toyloq 10,1 % ni hamda Jomboy tumanlarida 10,8 % ni tashkil etdi










Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 803,2 ming so‘m bo‘lgan holda, Samarqand shahrida – 1 800,2 ming so‘mni, Jomboy tumanida – 1 729,3 ming so‘mni, Toyloq tumanida – 1 547,2 ming so‘mni va Samarqand tumanida – 1 325,1 ming so‘mni tashkil etdi.











Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 315,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 49,2 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari











2023- yilining yanvar-mart oylarida viloyatda 1 586,9 milliard so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 9,0 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o‘tacha iste’mol tovarlari ishlab chiqarishda Bulung‘ur tumani (167,4 %), Paxtachi tumani (140,7 %), Jomboy tumani (133,7 %) hamda Oqdaryo tuman (118,9 %) korxonlari tomonidan yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi.

## Nooziq-ovqat mahsulotlar











Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 47,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 52,1 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida iste’mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 33,2 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 66,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o‘sish sur’ati 109,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o‘sish sur’ati 109,5 % ni tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 37,5 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 10,7 %, Samarqand 10,6 %, hamda Kattaqo‘rg‘on tumani 7,6 % ni tashkil etdi.







Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






# Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 24,3 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,0 % ni, Toyloq tumani esa 15,0 % ni tashkil etdi.






Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 6 884 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1 683 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 24,4 %) Samarqand shahriga, 888 tasi (12,9 %) Urgut tumaniga, 658 tasi (9,6 %) Samarqand tumaniga, 561 tasi (8,1 %) Pastdarg‘om tumaniga va 361 tasi (5,2 %) Kattaqo‘rg‘on tumaniga to‘gri kelmoqda.

**Jami yangi tashkil etilgan**

**350 ta**
2023-yil yanvar-mart

**517 ta**
2022-yil yanvar-mart

**558 ta**
2021-yil yanvar-mart



**Jami faoliyat yuritayotgan**

**6 669 ta**
2023-yil yanvar-mart

**8 239 ta**
2022-yil yanvar-mart

**7 276 ta**
2021-yil yanvar-mart



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 857,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,4 % ni tashkil etdi.









